

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TO‘SQINLIK QILISH BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR HAMDA QONUN NORMALARINING RIVOJLANISH TARIXI

Abdusalimov Ma’murjon To‘ychi o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti. “International school of finance technology and science” MCHJ Instituti

Bosh yuriskonsulti

Annotatsiya: Mazkur maqola tadbirkorlik faoliyatiga to‘sinqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar rivojlanish tarixi, javobgarlik tushunchasi, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sinqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlarda javobgarlikka tortish masalalari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sinqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashishga oid jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik faoliyatiga to‘sinqinlik qilish, jinoyat kodeks, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, xususiy mulk, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning huquqlari, jinoiy javobgarlik.

KIRISH

Mulk hamda mulkiy huquq alohida e’tiborga molik bo‘lganligi uchun kishilik jamiyati rivojining barcha bosqichlarida asosiy masalasiga aylangan. Tadbirkorlikka to‘sinqinlik qilish, unga noqonuniy aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar negizida shaxsning mulk huquqiga daxl qilish, uning mulkiy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sinqinlik qilish yotadi. Shu sababdan mulk huquqi va mulkiy munosabatlar har bir davrda nafaqat huquqiy, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy mazmun kasb etgan.

TADQIQOT METADOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida xususiy mulk yoki mulkdorning huquq va manfaatlarini himoya qilish amalda deyarli mavjud bo'lmaganidan, hokimiyat mulk huquqining himoyasini amalda ta'minlamaganligi singari ikki o'ziga xos jihatni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ushbu davrning birinchi o'ziga xos jihat barchani teng baxtli qilish g'oyasi bilan o'tkazilgan Oktabr inqilobi va sotsialistik eksperiment xususiy mulkni bekor qilishi bilan bog'liq. Inqilob asrlar davomida shakllangan Rossiya davlatchiligining huquqiy tizimini parchaladi hamda bu jarayon qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga daxl qildi. 1919-yilda P.Stupka yangi huquqni kodifikatsiya qilishni taklif qildi. Bunda yangi konstitutsiya markaziy ahamiyat kasb etib, oila huquqi va ijtimoiy ta'minot huquqi negizida "sotsial huquq" yuzaga keldi. Ushbu davr mulk huquqi ahamiyatining sezilarli darajada pasayishi hamda yer va ishlab chiqarish ob'ektlarini natsionalizatsiya qilishga yo'l qo'yadigan normalar, "o'tish davrida xususiy mulk – eskilik sarqiti" deb hisoblaydigan yondashuvlar avj olishi bilan ham ajralib turadi. 1917-yildagi Yer to'g'risidagi Dekret, 1918-yildagi Shaharlarda xususiy mulkni bekor qilish to'g'risidagi Dekret salkam to'rt asrlik huquqiy bazani bekor qildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sovet hukumati hokimiyatga kelgan ilk kunlardan boshlab kommunistik mafkura jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqini mamlakat ishlab chiqarish salohiyatini taraqqiy ettirish yo'lida "qurban qildi", sotsialistik mulk ustuvorligi g'oyasi asosiy mafkura sifatida qarala boshlandi. Lekin, sotsialistik qonun manifest shaklida bo'lsada davlat va kooperativ mulk shakli bilan birga xususiy mulkning quyidagi uch shaklini ham belgilagan:

- jismoniy shaxslar mulki;
- bir necha shaxslar mulki – jamoa mulki;
- yuridik shaxslar mulki.

Xususiy mulk inson huquqlarining ajralmas tabiiy bo'lagi sifatida o'zida keng ashyoviy huquqlarni ham namoyon etadiki, jamiyatda tovar va mulkiy aylanmaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Biroq, so'z yuritilayotgan davrning ikkinchi o'ziga xos jihatni

shundaki, mulkka ega bo‘lishning asosiy vositalaridan biri – tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishning o‘zini jinoyat sifatida e’lon qilishida namoyon bo‘ladi.

Jumladan, 1959-yildagi O‘zbekiston SSR JKning 175-moddasida “spekulyatsiya” uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Ushbu qilmish foyda qilish maqsadida turli mol yoki boshqa buyumlarni sotib olish va ularni qaytadan sotishda, shuningdek bu harakatlarni kasb sifatida amalga oshirilishida ifodalangan. Ushbu jinoyat uchun “spekulyatsiya” buyumlari musodara qilinib, ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolash belgilangan.

Bundan tashqari, xususiy (jismoniy) shaxslarning kasb sifatida yoki ko‘p miqdorda boylik orttirish maqsadida savdo ishlarida vositachilik, dallollik qilishi JKning 176-moddasida (savdo ishlarida vositachilik qilish) bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan mol-mulk musodara qilinib uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki uch yilgacha surgun qilish jazosi tayinlangan.

Eng qizig‘i, jinoyat qonunining 1913-moddasida imoratlarning necha qavat bo‘lishi, xonalarning soni, turar joy maydoni normalarini buzish uchun jinoiy ta’qib o‘rnatilganki, unga ko‘ra necha qavat bo‘lishlik, xonalarning soni va turar joy maydonining hajmi yuzasidan belgilangan qonuniy normalarni buzib, shaxsiy mulk huquqi asosida yakka tartibda uy-joy qurish belgilangan normalardan ortib ketgan uy-joy maydoni musodara qilinib va shu ortiqcha maydon mehnatkashlar deputatlari mahalliy Sovetlarining ijroiya komitetlari ixtiyoriga topshirilib, olti oygacha muddatga axloq tuzatish ishlari bilan jazolangan. Bizningcha, ushbu holatlarni sotsializm va kapitalizm o‘rtasida kechgan o‘zaro mantiqsiz raqobat natijasi, deyish mumkin.

XX asrning oxirgi o‘n yilligi boshlariga kelib O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qildi, milliy iqtisodiyotda xilma-xil shakllardagi mulk, jumladan xususiy mulk paydo bo‘la boshladi. Jamiyatning barqaror iqtisodiy negizlarini barpo etish, iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotda xususiy mulkning o‘rnini mustahkamlash, uning daxlsizligini himoyalash, ishbilarmonlik va biznes muhitini yaxshilashga doir normativ-huquqiy hujjatlar bazasini shakllantirishga kirishildi.

Zero, xususiy mulk asosida bozor munosabatlari tashkil topadi, bozor munosabatlari tadbirkorlik faoliyati vositasida harakatga keladi. Xususiy mulkka asoslangan bozor munosabatlarining tashkil topishi, tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish tizimida demokratik tamoyillarga amal qilinganligidan darak beradi¹.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, uni liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, barcha turdagи mulk shakllari tengligi va baravar muhofaza etilishini kafolatlash, ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhit jozibadorligini oshirishga bog‘liq.

Mamlakatimizda xususiy mulkka asoslangan bozor munosabatlari ilk huquqiy asoslardan biri – 1990-yil 30-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunda xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz hamda davlat himoyasida ekanligi e’lon qilingan².

Shuningdek, 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunda tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq barcha munosabatlar to‘la qamrab olinmagan.

Sal keyinroq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi, iqtisodiyot negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, xususiy mulkning teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi hamda daxlsizligi kafolatlandi³.

Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish ijtimoiy zarurati o‘larоq 1999-yil 14-aprelda “Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Xususiy mulkning boshqa mulk shakllari bilan teng va bir xil muhofaza qilinishining huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasining FK, “Xususiy korxona

¹ Rahmonqulov H. Xususiy mulk va tadbirkorlik/G’.Abdumajidovning umumiyy tahriri ostida. – T.: Adolat, 2001. B.3.

² O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 37-son, 978-modda.

³ O‘zbekiston Respublikasining Конституцијаси. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019 y., 03/19/527/2706-son, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.

то‘г‘рисида”ги, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘г‘рисида”ги qонун va boshqa qонун hujjatlarida ham o‘z ifodasini topdi.

XX asr boshlarida aholi aksariyat qismining turmush kechirish darajasi nisbatan past bo‘lgan sharoitda tovar va xizmatlar bozorini tashkil etish, turli xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar strukturalarining rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy munosabatlarning yuqori kriminogen vaziyatni keltirib chiqardi. Shu sababdan ham ishlab chiqarish va moddiy boyliklarning taqsimlanishi tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati ustidan “ommaviy kriminal nazorat”ning o‘rnatalishiga olib keldi, oqibatda bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunday sharoitda tadbirkorlik faoliyati nafaqat samarali fuqarolik-huquqiy tartibga solish tizimiga, balki lozim darajadagi jinoyat-huquqiy muhofaza qilishga ham ehtiyoj sezardi⁴.

Shu jihatdan tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to‘sinqilik qilish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zaruratini o‘rganishda aynan shunday qilmishlarning kriminalizatsiya qilinganligi muhim ahamiyatga ega.

Qayd etish kerakki, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlik joriy etilishi munosabati bilan⁵ JKga 206¹-modda kriminalizatsiya qilindi. Ushbu modda ob’ektiga ko‘ra beshinchi bo‘lim – hokimiyat, boshqaruv, jamoat birlashmalari organlari faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar bo‘limida joylashtirilgan.

Mazkur jinoyat xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatiga noqonuniy aralashish, ya’ni tegishli vakolat berilmagan mansabdor shaxs yoki boshqa shaxs tomonidan xizmat mavqeidan foydalanib xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini qasddan tekshirish tashabbusi bilan chiqish yoki bunday tekshiruv o‘tkazish, ularning faoliyatini yoki banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarini to‘xtatib turish,

⁴ Ежов Ю. А. Преступления в сфере предпринимательства. М., 2001. С. 5 - 11.

⁵ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 37-сон, 423-модда.

qonunda nazarda tutilmagan hollarda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisobvaraqlarida pul mablag‘lari bor-yo‘qligi to‘g‘risida axborot talab qilib olishda ifodalanar edi.

O‘z navbatida, 206¹-moddaga muvofiq tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qasddan tekshirish tashabbusi bilan chiqish yoki tekshiruv o‘tkazish, ularning faoliyatini yoki banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish, qonunda nazarda tutilmagan hollarda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisobvaraqlarida pul mablag‘lari bor-yo‘qligi to‘g‘risida axborot talab qilib olish ham jinoiy javobgarlik keltirib chiqargan. Jinoyat qonunchiligidagi ushbu kriminalizatsiya holatini iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim bo‘g‘in – tadbirkorlik faoliyatini jinoyat-huquqiy mexanizm vositasida muhofaza qilish yo‘lidagi ilk qadam, deb atash mumkin.

Biroq, jinoyat qonunchiligidagi mazkur holat aslida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatiga asossiz aralashganlik uchun ilgari javobgarlik belgilanmaganligini, bu kabi harakatlar uchun javobgarlikning muqarrarligi ta’milanganmaganligini anglatmaydi. Bu kabi harakatlar uchun mansabdor shaxslarni JKning 205, 206-modda bilan javobgarlikka tortish mumkin edi. Biroq, buning uchun qilmish natijasida ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilgan bo‘lishi shart edi.

So‘z yuritilayotgan jinoyat normasi uch qismdan iborat bo‘lib, qilmish ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga ko‘ra ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, qilmish juda ko‘p miqdorda zarar yetkazib, uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab yoki mas’ul mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat toifasiga kirar edi.

Qonun chiqaruvchi mazkur moddaning ikkinchi qismida qilmishni ko‘p miqdorda zarar yetkazib, takroran yoki xavfli residivist tomonidan, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etganlik uchun javobgarlikni differensiatsiya qilgan.

Shuningdek, moddaning uchinchi qismida qilmishning juda ko‘p miqdorda zarar yetkazib, uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab yoki mas’ul mansabdor shaxs tomonidan sodir etilganligi og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan.

Ushbu davrda tadbirkorlik faoliyatini jinoyat-huquqiy mexanizmlar bilan muhofaza qilishda jinoyat qonunchiligidagi mavjud umumiy normalardagi belgilar maxsus normada yanada aniqlashtirilgan, deyish mumkin. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, xususan tadbirkorlik faoliyatini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash ehtiyoji qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri, motivi va maqsadiga ko‘ra javobgarlikni tabaqalashtirishga olib kelgan mazkur norma O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagи O‘RQ-391-sonli Qonuniga⁶ asosan o‘z kuchini yo‘qotgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida tadbirkorlik sub’ektlarini asossiz ravishda tekshirish holatlari ko‘p ekanligini qayd etib, U.Cherchilldan “ba’zilar tadbirkor deganda sog‘in sigirni, faqat sanoqli odamlargina tadbirkor deganda og‘ir aravani tortayotgan mehnatkash otqi tushunishi” haqida iqtibos keltirgan edi⁷. 2015-yildan hozirgi paytgacha bo‘lgan davrda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish orqali iqtisodiy barqaror o‘sishni ta’minalash maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga alohida e’tibor qaratilganligi bilan ahamiyatga ega. Jumladan, xususiy mulkni, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minalash, ular faoliyatini liberallashtirish, duch kelishi mumkin bo‘lgan to’siqlarni bartaraf etish borasida me’yoriy-huquqiy baza tubdan qayta ko‘rib chiqilishi natijasida o‘tgan yillar davomida xususiy mulkning iqtisodiy ahamiyatini oshirish hamda uning himoyasini kuchaytirishga qaratilgan 15 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to’sqinlik qilish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik differensiatsiya qilindi.

⁶ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 33-сон, 439-модда.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга 2017 йил 22 декабрдаги Мурожаатномаси.<http://aza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>

Tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish – davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish sifatida baholash⁸, tadbirkorni faqat jazolash uchun povestka bilan chaqirish emas, balki unga amaliy yordam berish, unnig huquq va manfaatlarini himoya qilish zarurati⁹, shuningdek mamlakatimiz aholisining xususiy sektorda band bo'lgan qismining aksariyati tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanishi, tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish masalasini kun tartibiga chiqardi.

Eng muhimi, tadbirkorlik sub'ektlari soliq to'lovchi sifatidagina emas, balki yangi ish o'rirlari yaratuvchi potensial ish beruvchi sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutishni zaruratga aylantirdi. Qayd etish kerakki, 2015-yil 15-maydag'i "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilinishi hamda uning asosida 2015-yil 20-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan JKning "Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar" nomli XIII¹ bob bilan to'ldirilishi bu sohada yangi bosqichni boshlab bergen. JKga kiritilgan yangi XIII¹ bobda qonun chiqaruvchi tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar

⁸ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. // Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги маърузаси. 2016 йил 14 декабрь. // uza.uz

⁹ Мирзиёев Ш.М. Халқимиз биздан қонун ва адолат устуворлигини амалда таъминлашни кутмоқда. // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 206.

va xo'jalik yurituvchi subyektlar huquq va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiluvchi boshqa jinoyatlarni farqlab ko'rsatgan.

Yuqorida keltirilgan tasniflar ko'ra ushbu tadqiqotda tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarning ob'ektiv tomon belgisiga ko'ra shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin, deb hisoblaymiz:

- 1) tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar;
- 2) tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar.

O'zbek tilining izohli lug'atida "to'sqinlik qilmoq" fe'li "to'sqin bo'lmoq", "qarshilik ko'rsatmoq", "aralashmoq" fe'li esa "qo'shilmoq", "aloqada bo'lmoq", "munosabatda bo'lmoq"¹⁰ kabi ma'nolarni anglatishi berilgan. Bundan tashqari, sodir etilish usuli va jinoyat tarkibining ob'ektiv tomon belgilariga ko'ra tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar – xususiy mulk huquqini buzish (192¹-m.) tadbirkorlik sub'ektlarini homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish (192⁴-m.), litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (192⁵-m.), imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish (192⁶-m.);

tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar – tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish (192²-m.), tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini va (yoki) ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to'xtatib turish (192³-m.), tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi axborotni qonunga xilof ravishda talab qilib olish (192⁸-m.) kabi qilmishlarda ifodalanadi. Qonun chiqaruvchi mazkur turdag'i

¹⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд.-Т.: "Ўзбекистон миллый энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. –680 б.

jinoyatlarni ijtimoiy xavfliligi va xususiyatiga ko‘ra uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga kiritgan. Shuningdek, jinoyat qonunchiligidagi so‘z yuritilayotgan jinoyatlarning obyektiv (ko‘p yoki juda ko‘p miqdorda zarar yetkazib) va subyektiv (bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab) belgilariga ko‘ra quyidagi og‘irlashtiruvchi holatlari farqlangan:

- obyektiv belgilariga ko‘ra – ko‘p yoki juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- subyektiv belgilariga ko‘ra – bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan holda.

XIII¹ bob yangi kriminalizatsiya qilinganligi sababli Oliy sud Plenumining “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida “tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish” deganda quyidagilar tushunilishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan:

- mulk huquqini qonunga xilof ravishda cheklash va (yoki) undan mahrum qilish, xususiy mulkka tajovuz qilish, nomaqbulligi oldindan ayon bo‘lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish;
- tadbirkorlik subyektlarini pul mablag‘lari hamda boshqa moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog‘liq homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish;
- litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berishning belgilangan tartibi hamda muddatlarini buzish;
- imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sinqilik qilish va boshqalar¹¹.

Qonun chiqaruvchi ushbu turdagи jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan – jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari hamda ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленумининг “Тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ ишлар бўйича суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида”ти қарори. <https://lex.uz/docs/2307198>

tariqasidagi jinoiy jazolar qo'llash bilan tahdid qilgan. Biroq, mazkur moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan jinoiy jazo miqdori o'xshash tarkibli jinoyatlar uchun belgilangan jinoiy jazolar miqdoridan ancha kam ekanligi bilan ajralib turar edi. Shu sababli mazkur normalarning sanksiyalari 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli hamda 2018-yil 22-oktabrdagi O'RQ-503-sonli Qonuni bilan birmuncha og'irlashtirildi. Biroq, 2019-yil 3-dekabrdagi O'RQ-586-sonli Qonun bilan ushbu moddalarning sanksiyalariga kiritilgan o'zgarishlar jinoiy jazoning turi va miqdoriga emas, balki O'zbekiston Respublikasida mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi bilan bog'liq. Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib mulk huquqi va mulkdorning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi hammavaqt dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Agar huquq va davlat rivojining oldingi bosqichlarida mulkka bo'lgan tajovuzga qarshi kurash ijtimoiyadolatni ta'minlash vositasi sifatidagina qaralgan bo'lsa, yangi mingyillikda u ijtimoiy zarurat, barqaror iqtisodiyot asosi sifatida e'tirof etila boshlandi. Tadbirkorlik sub'ektlarini jinoyat-huquqiy mexanizmlar vositasida muhofaza qilish tendensiyasi tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, ularga qulay shart-sharoit yaratish, shuningdek mamlakat aholisining ish bilan bandligini ta'minlash ko'rsatkichlarini oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik muqarrarligining ta'minlanishiga olib kelmoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy mustaqillik - Yangi O'zbekistonning mustahkam asosidir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5484>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagи PF-21-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatçiliginи yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi “ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-364-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292-son qarori.

6. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (02.05.2012y. O‘RQ-328-son).

7. “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (24.09.2012y.)

8. “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (05.04.2019y.).